

**MAKTABDA KIMYO FANINI O'RGATISH VA O'RGANISHDA VIRTUAL
LABORATORIYALARDAN VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGI.**

Bo‘riyev Shavkat Turayevich

Oltinsoy tumani 26-umumta’lim maktab direktori

Abdullayeva Farida Abdulhakim qizi

Oltinsoy tumani 23-umumta’lim maktabining birinchi toifali kimyo fani o‘qituvchisi

Quchqarov Muxriddin Abdumuminovich

Oltinsoy tumani 26-umumta’lim maktabining birinchi toifali kimyo fani o‘qituvchisi

Termiz davlat universiteti magistranti

quchqarovmuxriddin01@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilishda o‘quvchilar bilimida bo‘shliqlar aniqlanmoqda. Ana shu bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun maktabda virtual laboratoriyanidan foydalanib o‘qitish va o‘rganishning ahamiyati haqida batassil ma'lumotlar berilgan bo‘lib hozirgi vaqtida qo‘llaniladigan kompyuter dasturlar bo‘yicha ishlash haqida ma'lumotga ega bo‘lasiz.

Kalit so`zlar: virtual, metodika, chemistry, amaliy mashg‘ulot, tajriba, reaktiv, o‘qitish, qiziqarli, dars, kompyuter, laboratoriya.

Annotation: In this article, gaps in students' knowledge are identified in the organization of practical classes in chemistry. In order to overcome these gaps, detailed information is given about the importance of teaching and learning using a virtual laboratory in the school, and you will get information about working with computer programs that are currently used

Keywords: virtual, methodology, chemistry, practical training, experience, reactive, teaching, interesting, lesson, computer, laboratory.

Аннотация: В данной статье выявлены пробелы в знаниях студентов при организации практических занятий по химии. Чтобы устранить эти пробелы, школа предоставляет подробную информацию о важности преподавания и обучения с использованием виртуальных лабораторий, а также информацию о работе с современными компьютерными программами.

Ключевые слова: виртуальный, методика, химия, практические занятия, опыт, реактивный, учение, интересный, урок, компьютер, лаборатория.

KIRISH

Kimyo fani eksperimental aniq fanlar sirasida ekanligi uchun bilim va ko‘nikmalar ko‘proq laboratoriya mashg‘ulotlarida mustahkamlanadi. Ammo ko‘pgina maktablarda keng tarqalgan muammo – bu maktab uchun cheklangan laboratoriyanı yuqori texnik xizmat ko‘rsatish xarakatlari tufayli fan laboratoriylarida asbob-uskunalar va

materialarning yetishmasligi [10]. Laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun ko‘p hollarda zaharli va zararli, yonuvchan va portlovchi reaktivlar, murakkab jihozlarni ishlatish talab etiladi. Bevosita laboratoriya ishini bajarishga kirishishdan oldin uni kompyuter yordamida virtual holatda ko‘rib chiqish – reaktivlarni tejashga, xavfsizlikni ta’minlashga, o‘quv jarayonini samaradorligini oshirishga olib keladi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Virtual laboratoriyalarni unumli ishlatish uchun ulardan foydalanish yo‘riqnomalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va ulardan foydalanish dolzarb vazifa bo‘lib bormoqda. Maktabda amaliy tajribalar o‘tkazish vaqtida laboratoriya jihozlari va reaktivlar hamma vaqt ham yetarli bo‘lavermaydi. Bundan tashqari ayrim laboratoriya ishlarini bajarishda noqulay sharoitlar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tajribalar yo‘q emas aniqroq aytadigan bo‘lsak amaliy tajribalarni bajarishda moddalar va reaktiv yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin. Shunda virtual laboratoriya va qo‘sishimcha kompyuter dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Lekin bu dasturlar bilan ishlash bo‘yicha o‘zbek tilida yetarli qo’llanma mavjud emas. Ilmiy maqolanaing maqsadi o‘quvchi va o‘qituvchilar uchun kompyuter kimyoviy dasturlari bilan ishlash bo‘yicha qulay, o‘zbek tilida o‘quv uslubiy qo’llanma tuzish va foydalanishdir [2].

Kimyo fanining labaratoriya mashg‘ulotlari bo‘lsa, uni bajarish imkoniyatini beruvchi turli kimyoviy dasturlar mavjud. Informatsion texnologiyalarning rivojlanishi hamda bugungi kunning talab va takliflaridan kelib chiqqan holda ayrim kompyuter dasturlarining android versiyalari yaratilgan. Shuningdek, smartfonlar uchun mo‘ljallangan kimyo ta’limida qo’llanilishi mumkin bo‘lgan 100 dan ortiq dasturlar “Play market”da mavjud. Shulardan ayrimlari 1-jadvalda keltirilgan [3].

1-jadval. Kimyoga oid qo‘l telefonlari (smartfonlar) uchun yaratilgan dasturlar (play market asosida)

№	Dasturning nomi	Belgisi	Dasturning imkoniyatlari
1	CHEMIST-Virtual Chem		Virtual laboratoriya.
2	Химия 8 класс		8-sinf darslik
3	Химические элементы		Kimyoviy elementlar haqida ma‘lumot li (olinishi xossasi ishlatilishi va h.k).
4	Find element		Jadvaldan elementni topish o‘yini.
5	Atomas		Aylana atrofidan berilgan elementni sh kerak (O‘yin).

6	Химические лаборатория		Kimyoviy laboratoriyalardagi reaksiya orishni simvollar bilan ifodalaydi.
7	Chemistry Advisor		Kimyoviy reaksiyalarni davom ettirish iya haqida ma'lumotlar beradi.
8	Химические элементы и одическая таблица - Тест		Davriy jadvalning turli ko'rinishlarini a mujassamlashtirgan. Elementlarning ha xossalari aks ettirilgan.
9	Chem Equation Balance		Kimyoviy reaksiyalarni yozishning qulay bo'lib, reaksiya koeffitsiyentini qo'yib li.
	Химия X10 —задачи и ции		Bu dastur bilan kimyodan olingan larimizni mustahkamlash va tekshirish niyatiga ega bo'lamiz.
	Таблица валентностей		Elementlarning valentligini ko'rsatadi.
	Molar Mass Calculator		Dastur yordamida turli moddalarda kulyar massani hisoblash, undan modda origa va massaga o'tish kabi amallarni ish mumkin.

Kimyo faniga oid elektron bazalar.


Informatsion texnologiyalar rivojlanishi natijasida hujjatlar qog'ozlardan elektron shaklga ko'chmoqda. Kimyo ta'limida elektron bazalarning o'rni juda katta. Birorta kimyoviy birikma haqida ma'lumotlar zarur bo'lsa, internet manbalariga murojaat qilgan holda juda tez fursatda kerakli ma'lumotlarni olish mumkin [9]. Masalan, www.google.com qidiruv tizimida "Toluene (toluol)" deb yozadigan bo'lsak, u Wikipedia (www.wikipedia.org), PubChem (www.ncbi.nlm.nih.gov), www.study.com, www.worldmolecules.com, www.sigmapellicle.com kabi internet sahifalarida jamlangan ma'lumotlarni taqdim qiladi. Oxirgisi orqali bizni qiziqtirgan moddaning ayni paytdagi narxi bilan ham tanishib olishimiz mumkin. Internet resurslarida yetakchi nashriyotlar tomonidan chop qilinadigan ilmiy jurnallar, kitoblar, ensiklopediyalar va ma'lumotnomalar elektron shaklda qo'yilgan. Turli sohalarga tegishli ilmiy jurnallar www.sciencedirect.com internet sahifasida jamlangan. www.chemweb.com internet sahifasida kimyogarlar uchun kerakli ma'lumotlar yoritilgan. www.rcsb.org va www.ndbserver.rutgers.edu internet sahifalarida oqsillar hamda nuklein kislotalar bo'yicha elektron bazalar keltirilgan [4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kimyo fanlarini o‘qitishda yuqorida taklif etilgan kimyoviy kompyuter dasturlarini sinflash va qo‘lanilish borasidagi takliflar inobatga olinsa, ta’lim jarayonining samaradorligi yanada ortadi deb hisoblayman [5].


Химия (8-11 класс) Виртуальная лаборатория dasturining o‘rnatalishi

Bu dasturi Windows xp dasturlariga mo‘ljallangan bo‘lib Windows 7 va Windows 8 sistemalariga o‘rnatishda bir necha bosqichlari bor . Dastur virtual labaratorya papkasidagi CD1 fayili ichida joylashgan Run. exe fayili bilan o‘rnataladi.



Dasturni o‘rnatish oynasi hosil bo‘ladi va ishchi oynasida dastur yorlig‘i hosil bo‘lishi uchun belgi Поместить ярлык на Рабочий стол qo‘yiladi. Dasturni o‘rnatishda ko‘rsatilgan variantlardan biri tanlanadi. **Минимальная , Рекомендуемая, Полная/сетевая.**

Tanlab bo‘lib o‘rnatish “Установить” Tugmasi belgilanadi.



Dastur o‘rnatiladigan joy ko‘rsatilgan

hosil bo‘lgan oynadan o‘rnatishni davom etirish tugmasi belgilanadi. Dastur o‘rnatish yakunlanadi.

Bundan tashqari virtual laboratoriyada reaksiya mexanizmlarini o‘rganish, bir vaqtning o‘zida reaksiya uchun turli sharoitlar hosil qilib reaksiyalarning borishini ham

kuzatish mumkin. Shu sababdan hozirda ko‘plab kimyoviy virtual laboratoriylar ishlab chiqildi [7].



1-rasm. Metanning olinishi va konsentrlangan sulfat kislotani alkanlar bilan o‘zaro tasirining virtual laboratoriyyada ko‘rinishi.

Kimyoviy dasturlardan dars jarayonida keng foydalanish, ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni nafaqat kimyo fanlariga balki, zamon talablaridan kelib chiqqan holda kompyuter texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. [8].

XULOSA

Bugungi kunda kimyoviy virtual laboratoriylar yaratish bo‘yicha O‘zbekistonda ayrim izlanishlar olib borilgan. Masalan, maktab kimyo fani darsliklarining elektron variantda laboratoriya mashg‘ulotlarini video tasma ko‘rinishda berilgan. O‘quvchi bu video tasmani faqatgina kuzatish bilan cheklanadi. Laboratoriya ishini sharoitlarini o‘zgartirib kerakli natijalar olish imkoniyati mavjud emas. Hozirda yaratilgan kimyoviy virtual laboratoriylar esa bunday imkoniyatlar bor bo‘lib o‘quvchida mustaqil fikrlash, ekstremal holatlarda ham kerakli natijalar olish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi tufayli kimyo fanlariga ham o‘qitish texnologiyasiga turli xil kompyuter dasturlari kirib keldi. Kimyoning asosiy obyekti molekula juda kichik bo‘lgani uchun uni oddiy ko‘z bilan ko‘rish yoki qo‘l bilan ushlash imkoniyati yo‘q. Ammo uning kattalashgan modelini hosil qiluvchi turli kompyuter dasturlari yaratildi. Bu dasturlardan kimyo fanlarini o‘qitishda samarali foydalanish uchun ularning xususiyatlarini bilish zarur. Tadqiqotlarni yanada rivojlantirib kimyoviy dasturlarni ham o‘zbek tilida yaratish keyingi rejalarimizdan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- [1]. Virtual chemistry laboratory (version 1.6.4). The IrYodiumproject’s. founded by the National Science Foundation 2010.

- [2]. I.R.Askarov, Yu.T.Isaev, A.G.Maxsumov, Sh.Qirg'izov. Organik kimyo. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2012.
- [3]. И.И.Грандберг. Органическая химия, М."Дрофа" 2002 г. Для студентов сельхоз. И биологическ. специальностей.
- [4]. Ю.С.Шабаров Органическая химия. Москва. Химия. 2000 г.
- [5]. А.А.Петров, А.Т.Трощенко, Х.В.Балъян. Органическая химия. Москва. "Высшая школа" 1987 г. Для студентов хим. технологических специальностей.
- [6]. А.И.Артеменко Органическая химия М. «Высшая школа». 2002 г.
- [7]. В.Ф. Травень. Электронная структура и свойства органических молекул. Москва, химия, 1989, 384 с.
- [8]. N.G.Raxmatullaev, X.T.Omonov, SH.M.Mirkomilov "Kimyo o'qitish metodikasi" Т., "O'qituvchi" 2013 yil.
- [9]. Сайдов Д.Х., Зикиров С.А атмосфера ҳавосидаги тримэтиламин миқдорини аниқловчи яримўтказгичли сенсорлар олиш international scientific journal volume 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
- [10]. О.Х. Полещук, Д.М. Кижнер. Химические исследования методами расчета электронной структуры молекул: Учебное пособие. – Томск: Изд-во ТГПУ, 2006. – 146 с.
- [11]. Jumayeva Z.E., Mirzayeva F.J. Saidov D.X the determination of the appearance, color, density of ethyl acetate obtained on the basis of eaf World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Vol. 5, December - 2021 ISSN: 2749-361X